



## TALABALARNI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATINI METODIKALARDA KO'RISH

*Turg'unov M.M.*

*Mustaqil tadqiqotchi*

**Tayanch so'zlar:** pedagogik aksiologiya, ma ta'lim, qadriyat, mazmun, funktsiya.

**Ключевые слова:** педагогическая аксиология, образование, ценность, содержание, функция.

**Key words:** pedagogical axiology, education, value, content, function.

Kirish. Pedagogik aksiologiyaning mazkur vazifa va funktsiyalari ilmiylik, amaliylik, tajriba birligini ifoda etuvchi pedagogik aksiologiya mazmunini ochib beradi. Hmiy jihat (aspekt) boshqa barcha ijtirnoiy jarayonlarni aniqlab beruvchi, asosiy qadriyat sifatida ta'limni ko'rib chiqish asosida ta'limiy qadriyatlarni o'rganuvchi pedagogikaning yangi ilmiy yo'nalishi - pedagogik aksiologiyaning muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni talab etadi.[1.56] Bu yerda asosiy vazifalardan biri sifatida aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, ta'limni qadriyatli bashoratlashni ilmiy asoslash aks etadi.

**Metadalogiya.** Aksiologik bilimlarni tizimlashtirish maqsadida pedagogikadagi qadriyatli merosni o'rganish va pedagogik aksiologiyaning kategorial apparatini aniqlash ham kam bo'lmagan vazifa hisoblanadi. Amaliy jihat a'quv rejalarini va dasturlarni darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish, didaktik va metodik materiallarni ishlab chiqish, ta'lim va tarbiya kontseptsiyasini yaratishda ta'lim sohasi xodimlarining aksiologik bilimlardan foydalanishini tahlil etadi. Tajribaviy (praktik) jihat o'quvchi, talaba, o'qituvchilarning aksiologik ongi, munosabati, xulq-atvorini shakllantirish, ularni aksiologik yo'nalganligini rivojlantirishga doir aniq muammolarini hal etishga qaratilgan ta'lim muassasalari faoliyatini o'z ichiga oladi. Ularning vazifasi hozirgi vaqtda pedagogik aksiologiya nimani taqozo etsa, shularning barchasidan mohirona foydalanishni o'zida aks ettira olishdir.[2.129] Amaliy jihatni amalga oshirish to'liq ravishda aksiologik yo'nalganlikning nazariy asoslarini aniqlab beradigan ilmiy jihatni rivojlanganligiga va ta'lim sohasi barcha bo'g'inlari faoliyati yo'nalganligini shakllantirilganligiga bog'liq bo'ladi.



Pedagogik voqelikni o'rganishda ilmiy bilishning boshqa usullari bilan birga aksiologik yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me'yor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim. Bunga umumiy bilish nazariyasi (gnoseologiya) bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma'lumotlariga, ayniqsa, valeologik va aqliy faoliyatning dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlarning yutuqlariga tayaniladi.

Qadriyatlarni anglash, o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog'liq uzviy jarayonni anglatadi. Pedagogik hodisalarga ijtimoiy-sotsiologik yondashilganda voqea va jarayonlar orasidagi o'zaro bog'liqlik, tarixiy aloqadorlik, sabab va oqibat bog'lanishining ifodasi bo'lgan uzluksizlikning ahamiyati ortadi.[3.17] Bunday yondashuv qadriyatlarga, ular bilan bog'liq jarayonlarga nisbatan qo'llanilganda ijobiy ilmiy va amaliy natija beradi. Bunda pedagogik qadriyatlar tartibsiz namoyon bo'ladigan va bir-biri bilan bog'lanmagan ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki u yoki bu davr, ijtimoiy subyekt va boshqalar bilan bog'langan aksiologik tizimlar hamda ularning elementlari sifatida namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot natijasi va diskurssiya.** Qadriyatlarga bunday yondashishda ijtimoiy fanlarning yutuqlari, tarix, etnografiya, demografiya va sotsiologik tadqiqotlarning natijalariga tayanish yaxshi natija beradi. Ammo qadriyatlarni o'rganishda faqat ana shular bilan chegaralanib qolish yaramaydi. Balki reallik, uning namoyon bo'lish shakllari, voqea-hodisa va jarayonlarning qadri, ijtimoiy ahamiyatini anglash ham nihoyatda muhim. Bunda ularning ijtimoiy funksiyalari, o'ziga xos tashqi ta'simi anglash katta ahamiyat kasb etadi. Faqat aksiologik yondashuv asosida qadriyatning ilmiy kategoriya sifatidagi mohiyati, boshqa tushunchalardan farqi, obyektiv asoslari va subyektiv anglab olinishi, namoyon bo'lish shakllari haqida to'g'ri ma'lumotlar olish mumkin. Bunda narsa, voqea-hodisalar, kishilar va ularning faoliyatiga qadr hamda qadrlanish darajasi nuqtai nazaridan qaraladi. Mazkur qarashda foydalilik, qiymat va ularni ifodalaydigan iqtisodiy baho emas, balki qadring ahamiyati asosiy o'rin tutadi. Bunda qadr va baho bir-biriga mos kelmaydigan, narsa yoki obyektning qadri uning iqtisodiy qiymatidan bir necha marta salmoqliroq bo'lishi ham mumkin bo'lgan hollar ko'p uchraydi. Masalaning bu jihatini o'rganish axloqshunoslik, estetika, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslikning dalillari va ma'naviyatning ijtimoiy qirralariga tayanadi. [6.179] Bunda, ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat hamda ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati, hay'otning turli qirralarini aks ettiradigan muammolar hamda ularning yechimlarini ifodalaydigan qarashlar,

g'oyalar, ta'limotlar, talab va ehtiyojlarning real jarayonlar uchun qadriyatini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi.

Demak, olamni o'rganish va voqelikning qonuniyatlarini tavsiflashda gnoseologik, sotsiologik va aksiologik yondashuvlarning uyg'unligi, zarur bo'lganda ulardan foydalanishda kompleks munosabat lozim. Koinotdagi hodisalarning sayyoramiz hayotiga, Yer yuzida ro'y berayotgan jarayonlarning odamlar umri va turmush tarziga ta'siri, ekologik halo kat va urush xavfi natijasida insoniyatni saqlab qolish ehtiyojlari, odam zoti va tiriklikning eng qadri ma'volar sifatidagi ahamiyatini to'g'ri anglash uchun aksiologik yondashuvga tayangan ma'qul. Zamonaviy oliy ta'limni rivojlantirishning zaruriy ehtiyoji –aksiologik muammolarni tadqiq etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, talabaning ma'naviy-ijtimoiy muammolarini ustuvor vazifalardan biriga aylantirmoqda. Zero, qadriyatlar o'tmish va kelajakni bog'lovchi vosita sanalib, ular ehtiyoj-hissiyot sohasi va sub'ekt-shaxs faoliyatida o'zlashtirilgan, e'tirof etilgan hamda namoyon bo'lgan holda shaxsning kasbsohasini yanada chuqur o'zlashtirishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, aksiologiya o'ziga xos, murakkab fan tarmog'i bo'lib, jamiyat va shaxsning o'zaro harakatlariga oid turli shakl hamda darajalar, shuningdek, shaxs uchun o'zaro ichki hamda tashqi aloqalarning ma'lum bir shakllari, shaxsning atrof-muhitga bo'lgan munosabati, o'tmishi, buguni va kelajagi, o'z "men"i mohiyatini anglash borasidagi maxsus shakllarni o'ziga jamlaganligi bilan xarakterlanadi. Qadriyat - kishilar hayotida o'ta ahamiyatli hodisadir. Uni madaniyat soxalari ro'yobga chiqargan hodisalar bilan bog'qlikda anglash mumkin. Shunda xo'jalik, texnik, ijtimoiy, siyosiy, badiiy, ilmiy, axloqiy qadriyatlar ajraladi. Qadriyatlar ichida eng asosiysi va umumiy hayotdir. Qadriyat - deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlar va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi. Ayrim tadqiqotchilar uni davrning ehtiyojini belgilaydi, yani tarixiy xususiyat kasb etadi deb hisoblasa, boshqa bir tadqiqotchilar aksincha, qadriyat doimiy, universal xususiyatga ega deydilar. Ba'zilar esa, qadriyatni- me'yoriy andoza deb ataydilar. Mazkur turli xil, hatto qarama-qarshi fikrlardan kadriyatning ma'nosi ko'p qirrali ekanligi anglanadi. Shonli tarix va porloq kelajakni o'zaro uyg'unligini yaratish va bunga erishish bugungi avlodning zimmasidagi muhim vazifalar Qadriyatlar sirasiga kiradi, insonning ijtimoiy borliqdagi o'rnini ilm fan, bilim olish va yangiliklarga intilib, yaratib yashash kabi maqsadlar bilan chambarchas bog'laydi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, hozir har kun dunyoda 500 ga yaqin yangi faoliyat, kasb kor turi paydo bo'lmoqda. Hayot oqimining tezlashib, inson faoliyati doirasining uzluksiz kengayib, yangilanib borayotgani ta'lim va ilm olish zarurligini talab qilmoqda. Bu esa o'z navbatida, yoshlardan bilim olishni, o'zini o'zi uzluksiz



tarbiyalash,, ma'rifatli, intellektual salohiyatni va eng avvalo faol bo'lishga qaratilgan qadriyatlardan foydalanishni talab etmoqda. Mazkur qadriyatlar hayotiy maqsad, ideal, namuna va ibratlar sanaladi.

**Xulosa.** Olamda aksiologik munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga yetishi jarayonining tarkibiy qismidir. Kishi kamolot sari borar ekan, o'zi, o'zgalar, tashqi muhit, olam, umr, vaqt, davr va boshqalarning haqiqiy qadrini anglayveradi. Bu foniy dunyoning o'tkinchiligi, umr mazmuni, yashashning maqsadi, olamning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga yetishni o'rgana boradi. Bu esa mazkur kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy jarayonini anglatadi. Aksiologik munosabat faqat yakka, alohida shaxsgagina tegishli hodisa emas. Balki u ijtimoiy guruh, qatiam, millat, davlat va jamiyatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Shu ma'noda, aksiologik yondashuv va qadriyatli munosabatning individual hamda ijtimoiy namoyon bo'lish darajalarining alohida, xususi va umumiy shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Juraev R. X., Karaxonova L. M. Iqtidorli bolalarni ta'lim muassasalari tomonidan pedagogik qo'llab-quvvatlash //fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. Scientific- methodical journal. – 2022. - Jild 3. – №. 4. - 66-70 betlar
2. Mardonov.Sh. Pedagogik otmlarda talabalarni tayyorlashda aksiologik mo'ljal. international scientific journal volume 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-333
3. Ro'ziyeva D. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari: ped.fan dok...diss. 2007 -255b .
4. Siddiqov B. S. (2023). Aksiologik yondashuv asosida o'quvchilar dunyoqarashining shakllantirish mazmuni. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. 2(8), 104-107.
5. Saidkulovich S. B. (2023). Axiological approach in professional education of students. British View, 8(3).
6. Mardonov Sh.Q.Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar ni asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari ped. fan.dok diss T.,2006-302 B

#### РЕЗЮМЕ

Aksiologik muammolarga doir nazariy manbalardagi qadriyat tushunchasining mohiyatini tahlil etish asosida pedagogik aksiologiya qadriyat tushunchasiga shaxs va jamiyat faoliyatida ideal namuna va yo'nalishlarni aks ettiruvchi individual va ijtimoiy ongni tashkil etuvchi maxsus ta'lim sifatida qaraydi. Ushbu maqolada talabalarni aksiologik yondashuv asosida kasbiy pedagogik faoliyatini metodikalarda ko'rish yoritib berilgan.

#### РЕЗЮМЕ

На основе анализа сущности понятия ценности в теоретических источниках аксиологических проблем педагогическая аксиология рассматривает понятие ценности как специальное образование, формирующее индивидуальное и общественное сознание, отражающее идеальный пример и направление в деятельности личности и общества. В данной статье освещена профессиональная педагогическая деятельность студентов, основанная на аксиологическом подходе.

#### SUMMARY

Based on the analysis of the essence of the concept of value in the theoretical sources of axiological problems, pedagogical axiology considers the concept of value as a special education that forms an individual and social consciousness, reflecting an ideal example and direction in the activities of individuals and society. In this article, the professional pedagogical activity of students based on the axiological approach is highlighted.